O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Uzun tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 7-uy, 191100, tel.: (+99876) 44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 29 - iyun 275-8-118-Q/22 Uzun tuman hokimligi

Tumanda tabiiy pichanzorlar va yaylovlardan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni 12, 44-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19- avgustdagi “Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta’minlash va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 689-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N

1. Quyidagilar:

tuman hududida pichan o‘rish, tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me’yorlari, muddatlari va ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdorlari 1-ilovaga;

chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (N.Majidov), qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi (A.Ismoilov), tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaaza qilish sohasidagi nazorat bo‘limi (N.Pirnazarov)lar bilan birgalikda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni qonunchilik talablari asosida amalga oshirilishini ta’minlasinlar.

3. Ushbu qaror “Bobotog’ tongi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov va tuman hokimining o‘rinbosari N.Majidov zimmalariga yuklansin.

Hokim **B.B.Tursunov**

Uzun tuman hokimining
2022 yil 29 iyundagi
275-8-118-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me’yorlari, muddatlari va o‘tlatishga ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov

MIQDORLARI

T/r	Chorva mol turi	O‘lchov birligi *(bosh)*	O‘tlatishning me’yorlari *(talab etiladigan maydon, ga)*	Muddati	Ruxsatnoma berilganligi uchun undiriladigan to‘lov miqdori *(bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib)* % da
1.	6 oydan katta qo‘ylar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
2.	6 oygacha bo‘lgan yosh qo‘zilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
3.	6 oydan katta echkilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
4.	6 oygacha bo‘lgan uloqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
5.	Katta yoshdagi qoramollar	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
6.	Ikki yoshgacha bo‘lgan buzoqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %
7.	Katta yoshdagi otlar	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
8.	Ikki yoshgacha bo‘lgan toylar	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %
9.	Katta yoshdagi eshaklar *(uy hayvoni)*	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
10.	Ikki yoshgacha bo‘lgan xo‘tiklar *(uy hayvoni)*	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %

Uzun tuman hokimining
2022 yil 29 iyundagi
275-8-118-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari

Foydalanish muddati	**Pichan o‘rish miqdori hajmlari** *(kg, tonna, kubametr)*	**Ajratiladigan maydon, ga**	**Ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdori**
Bir yil (mavsum davrida)	kg	1 ga	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 % miqdorida